

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

5-2022

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

B.Sh.Shermuhhammadov, A.A.Ergashev

Alohida ta'limga ehtiyoji bor bo'lgan o'quvchilarga ta'lim- tarbiya berishni takomillashtirish omillari 7

J.E.Tursunov

O'quvchilarning kreativlik qobiliyatlarini shakllantirishda fanlararo bog'lanish..... 12

FALSAFA, SIYOSAT

N.S.Normatov, Z.S.Jumanov

Bemorlarning huquqlarini amalga oshirish bilan bog'liq tibbiy xizmatlarda raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektdan foydalanish istiqbollari..... 18

M. B.Xudaybergenova

Oliy ta'lim muassasalari talabalari orasida mutolaa madaniyatini shakllantirish: joriy muammolar va yechimlar tadqiqoti 26

TARIHX

M.H.Isamiddinov, N. Sh.Kambarov

Fag'onaning ilk bronza davri jamoalari 30

O.V.Mahmudov

«O'rta asr Yevropa tarjima markazlari» tushunchasi va uning ilmiy iste'moliga oid..... 36

N.Sh.Kambarov, I.S.Xakimova, A.R.Poziljonov

Jaliltepa yodgorligining Farg'ona vodiysi qadimgi davri madaniyatlaridagi o'rni 45

D.A.Aytimova

Qoraqalpog'istonda dastlabki kutubxonalarining shakllanishi va rivojlanish tarixidan 49

B.M.Abdullayev, N.Sh.Kambarov, A.R.Poziljonov

Andijon viloyatidagi Xonobod-1 yodgorligida ikkinchi mavsum dala tadqiqot natijalari 54

Sh.T.Quldashev

“Tarixi shavqiy” asari: topilishi va ilmiy tahlil 66

Q.Sulaymonov, D.Madaminov

Yangi bilimlarni o'zlashtirishda tez o'qishning ahamiyati 72

Z.N.Xatamova

Qo'qon xonligi moliyaviy tizimiga elchilik masalalarining ta'siri: Xudoyorxon zodaning “Anjum at-tavorix” asari asosida 76

I.M.Burxonov

Qo'qon xonligi tarixini o'rganishda Asomiddin O'rinboyev ilmiy tadqiqotlarini o'rganilganlik darajasi 84

A.N.Maxmudova

R.X.Sulaymonov tadqiqotlarida qadimgi Sug'd moddiy madaniyati muammolari 88

A.Sharofiddinov, D.Q.Mukarramov

Toshkent yeparxiyasiga boshchilik qilgan ruhoniylar faoliyati tahlili 91

D.A.Ismoilova

Turkiston o'lkasida kon-metallurgiya tarixidan (XIX asr oxiri - XX asr boshlari). 96

E.L.Gasanov

Ganja shahrini ko'chish tarixining tadqiqi haqida 101

ADABIYOTSHUNOSLIK

A.G.Sabirdinov

Mirtemirning she'riy mahorati xususida 106

Z.A.Rahimov

Tarixiy romanda syujet va xarakter 110

F.Isomiddinov

Irim-sirimlar 115

D.M.Xoshimova

«Boburnoma»dagi shaxs va xarakter munosabatini ifodalovchi qiyosiy vositalarning tarjimada berilishi 120

«BOBURNOMA»DAGI SHAXS VA XARAKTER MUNOSABATINI IFODALOVCHI
QIYOSIY VOSITALARNING TARJIMADA BERILISHI

ПЕРЕВОД СРАВНИТЕЛЬНЫХ СРЕДСТВ ВЫРАЖАЮЩИХ ОТНОШЕНИЯ
ЛИЧНОСТИ И ХАРАКТЕРА В «БАБУРНАМЕ»

TRANSLATION OF COMPARATIVE MEANS EXPRESSING PERSONALITY AND
CHARACTER RELATIONSHIP IN «BABURNAME»

Xoshimova Dildora Madaminovna¹

¹Xoshimova Dildora Madaminovna

– Namangan muhandislik-texnologiya instituti, “Chet tillar” kafedrasini mudiri, filologiya fanlari doktori, dotsent.

Annotatsiya

Ushbu maqola «Boburnoma» muallif shaxsining tarixdagi roli, o'ziga xos xizmati, kurash yo'li, maslak va matonatini ko'rsatuvchi ibratli asar hisoblanishi, uning markaziy qahramoni esa, albatta, Mirzo Bobur ekanligi, «Boburnoma»ga xos tasvir usulini ishlab chiqqan, buni yuksak mahorat bilan bera olgan Boburning qiyoslash uslubida barcha voqea-hodisalar, shaxslar, ularning qiyosiy tasviri bir «o'q» atrofida aylanishi haqida va ularning tarjimalarda adekvat tarjima qilinishiga bag'ishlanadi.

Аннотация

В данной статье «Бабурнаме» считается образцовым произведением, показывающим роль автора в истории, его уникальную службу, путь борьбы, мастерство и упорство, а его центральным персонажем, безусловно, является Мирзо Бабур, разработавший уникальный для «Бабурнаме», которую он представляет с большим мастерством. В методе сравнения Бабура все события, лица, их сравнительные образы вращаются вокруг «оси» и посвящены их адекватному переводу в переводах.

Abstract

This article is considered an exemplary work “Baburname” that shows the role of the author in history, his unique service, the way of struggle, skill and perseverance, and his central character is certainly Mirza Babur, who developed a method of depiction unique to “Baburname”, which he presents with great skill. In Babur's method of comparison, all events, persons, their comparative images revolve around an “axis” and are dedicated to their adequate translation in translations

Kalit so'zlar: qiyoslash uslubi, tasviriy vositalar, muallif uslubi, tarixiy shaxslar, jahaon adabiy tafakkuri, lingvokulturologik xususiyatlar, real hayot voqealari.

Ключевые слова: сравнительный метод, описательные средства, авторский стиль, исторические личности, мировая литературная мысль, лингвокультурологические особенности, события реальной жизни.

Key words: comparative method, descriptive means, author's style, historical figures, world literary thought, linguistic and cultural characteristics, real life events.

KIRISH

«Boburnoma»ni ko'zdan kechirar ekanmiz, qiyosiy tasvirlarning ko'p va xilma-xil shakllari borligiga guvoh bo'lamiz. Asarda 1560 dan ortiq tarixiy shaxslar tilga olinganligi, 30 ga yaqin fanga oid fakt-u dalillar mavjudligi, kishini hayratga soladigan ko'plab hayotiy lavhalarning chizilganligi, har bir shaxsning o'zigagina xos xususiyatlar bilan namoyon bo'lganligi, qiziqarli tarixiy voqealar keltirilganligi, tabiat, relyef, nabotot, turli millatga mansub xalqlarning urf-odatlariga oid boy ma'lumotlar berilgani fikrimizga yorqin dalildir.

Darhaqiqat, «Boburnoma» – boshdan-oxir hayot kitobi, real hayotda kechgan, lekin ma'no-mazmuni behad xilma-xil voqea-hodisalar tasvirlangan qomusiy kitobdir. Uning qomusiy xarakteri muallifning iqtidori va salohiyatidan kelib chiqqan. Ayni paytda, «Boburnoma» muallif shaxsining tarixdagi roli, o'ziga xos xizmati, kurash yo'li, maslak va matonatini ko'rsatuvchi ibratli asar hisoblanadi. Uning markaziy qahramoni esa, albatta, Mirzo Boburdir [3.44]. Faqat «Boburnoma»ga xos tasvir usulini ishlab chiqqan, buni yuksak mahorat bilan bera olgan Boburning qiyoslash uslubida barcha voqea-hodisalar, shaxslar, ularning qiyosiy tasviri bir «o'q» atrofida aylanadi. Bu Zahiriddin Muhammad Bobur shaxsiyatidir.

Hind olimlari «Boburnoma»dagi «tarixiy tasvir» haqida so'z yuritganda, unga xos badiiy tasvirning haqqoniyligi, realligini nazarda tutganlariga shubha yo'q. Zotan, «Boburnoma» jahon

ADABIYOTSHUNOSLIK

adabiy tafakkurida tarixni badiiy til vositasida jonlantirib ko'rsatuvchi original asarlardan biridir. Ayni paytda Bobur shaxsiyatini shiddatli tarixiy jarayonlar ichida, Movarounnahr va Xurosonda, xususan, Hindistonda yuz bergan qirq yillik voqealarning ishtirokchisi va sababchisi sifatida «Boburnoma» ko'zgasida aniq-ravshan ko'rib turamiz. «Bu asarni roman-epopeya deb atash mumkin. Epopeyaning bosh qahramoni esa Boburning o'zidir» [4.210-211], deya quvvatlaydi ushbu fikrimizni ulkan boburshunos, yirik nosir P.Qodirov.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Shuningdek, A.Qayumov, S.Hasanov, H.Qudratullaev, V.Rahmonov, H.Boltaboevlar tadqiqotlarida bu masala yuzasidan muayyan fikrlar bildirilgan. Mazkur olimlar fikrlarini to'la quvvatlagan holda, quyida «Boburnoma»da muallif shaxsiyati va xarakterini ifodalovchi qiyosiy vositalar, buning tarjimada aks ettirishi masalasi haqida fikr yuritimiz. Chunki biz tadqiq etgan tarjimalarda asl matnning pragmatik va lingvokulturologik xususiyatlarini qayta tiklash masalasi bosh planda turadi. Xuddi shu jihati bilan ushbu tarjimalar boshqa tarjimalardan farq qiladi.

«Boburnoma» tarixiy, biografik, ilmiy va sarguzasht xarakterida bo'lishi barobarida, barcha voqealar muallif «men»i doirasida kechadi. Bobur shaxsiyati atrofida rivojlanadi, uning xarakter xususiyatlarini ochib beradi. Bunday tasvirlar Boburning davlatchilik siyosati, harbiy yurishlariga oid ijobiy jihatlari, davlat boshqaruvida qo'lga kiritgan yutuqlari bayonida faolroq namoyon bo'ladi.

Boburning davlatchilik siyosati va harbiy yurishlari haqida xorijda ko'plab ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan. Ulardan biri Paul Laveren Xensen tomonidan Chikago universitetida himoya qilingan doktorlik dissertatsiyasidir. Bu ilmiy tadqiqot ishida Boburning mohir sarkarda va adolatli yurt boshqaruvchisi sifatida fazilatlarini keng yoritib berilgan [5.185]. Xususan, dissertatsiyada muallifning shaxslararo muqoyasa uslubi haqida ham so'z yuritilgan.

Haqiqatdan ham, qiyoslash uslubi «Boburnoma»ning boshidan-oxirigacha davom etadi. Bu uslubning muhimligi shundaki, qiyoslash orqali muallif dunyoqarashi keng ochilgan. Biz Bobur va uning davridagi ijtimoiy, siyosiy, davlatchilikka oid ma'lumotlarning obyektiv xarakterga molikligini aynan uning turli mavzularga oid qiyosiy tasvirlaridan topamiz. «Boburnoma» tarjimonlari Leyden-Erskin, A.Beverij va V.Tekstonlarning tarjimalarida bunday qiyosiy tasvirlar o'zining aniq-tiniq ifodasini topgan. «Boburnoma» tarjimalarini kuzatganimizda tarjimonlar qiyosiy tasvirlarni ortiqcha uslubiy bo'yoqsiz o'girishga harakat qilganini kuzatdik.

Boburning saltanat boshqaruv tizimiga doir fikrlari, harbiy san'at tarixi va jang olib borish strategiyasi borasidagi tajribalari ham uning shaxsiyati, xarakteri muhim qirralarining yorqin ochilishiga xizmat qilgan. Chunki Bobur harbu zarb qonuniyatlari hukm surgan dolg'ali zamon vakili sifatida harbiy faoliyatdan bir lahza bo'lsin xoli bo'la olmas edi. «Boburnoma» muallifi o'zini harbiy sarkarda, hukmdor sifatida o'tmishda yashab o'tgan mashhur tojirlar bilan qiyoslar ekan, bunday solishtiruv natijasida o'quvchi uning ulkan salohiyatiga yanada teranroq ishonadi. Ayni paytda, bunday solishtiruv o'quvchida e'tiroz uyg'otmaydigan darajada aniq va haqqoniydir. Muallifning ayni tasvirlardagi badiiy mahorati, personajlarning ruhiy holatini tasvirlashdagi takrorlanmas chizgilari, shaxs xarakterini belgilovchi o'ziga xos uslubi aslyat matnining pragmatik xususiyatlarga muvofiq qayta tiklanganmi yoki yo'qmi, quyida shu masala yuzasidan fikr yuritimiz.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

17–18 yoshli Bobur Shayboniyxon ustidan g'olib kelib, Samarqand taxtini ikkinchi marta egallaydi. Bu voqea tavsilotlari «Boburnoma» matnida shunday ifodalangan: «*Samarqand poytaxti bizning xonavodada edi. Qandag'i yot yog'iy o'zbek kelib mutasarraf bo'lub edi. Ilikdin ketgan mulkni yana Tengri berdi. G'orat va toroj topgan viloyat tasarrufimizg'a kirdi*» [2.80]. Bunda muallifning saodatli o'tmish haqidagi armonomuz so'zlari, yog'iyga nafrati, Ollohga shukronasi aks etgan. Sanalgan uch jihat tarjima matnida qiyosiy tasvirlar vositasi ko'rinishida o'g'irilgan. Leyden-Erskin tarjimasida: «...*Samarkand had been the capital of my family. A foreign robber, one knew not whence he came, had seized the kingdom, which dropped from our hands. Almighty God now restored it to me, and gave me back my plundered and pillaged country*» [6.422] (*Samarqand men mansub bo'lgan sulolaning poytaxti edi. Kelib chiqishi notayin bo'lgan yot bosqinchilik bizning qo'ldan ketgan podshohlikni egallab oldi. Qodir egam menga bosqinchilik va talon-tarojda qolgan mamlakatimni qaytarib berdi* MT.) deb tarjima qiladi. Bobur oshkora tarzda Samarqand taxtiga vorislik o'ziga mansubligini ta'kidlar ekan, shaharni zabt etgan Shayboniyxonning bu yurtga mutlaqo begonaligini aytib, uni «yot yog'iy» sifatida ta'riflaydi. Ushbu birikma: «*A foreign robber*» (yot

bosqinchi) shaklida beriladi, «yog'iy» so'zini ingliz tilida «*robber*» deb o'g'irilishi, tarjimaning pragmatik xususiyatni aks ettirmaydi. Asliyatda esa «yog'iy», ya'ni «dushman» deb beriladi. Bu birikma Samarqandni avval bosib olgan Shayboniyxonga nisbatan qo'llanmoqda. Tarjimada berilgan «*robber*» so'zi ingliz tili izohli lug'atlarida: 1. Biror shaxs yoki joydan biror narsani o'g'iraydigan (bosqinchi) shaxs ma'nosi mavjud. Demak, Z.M. Bobur qo'llagan «yog'iy» so'zining ma'nosi tarjimada pragmatik jihatidan to'la ochib berilmagan. Ushbu «yot yog'iy» birikmasi ingliz tiliga «*conqueror*» shaklida o'g'irilsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi. Muallif nazarda tutgan ma'no pragmatik muvofiqlikda o'z aksini topadi. Chunki ingliz tilidagi ushbu so'z «a person who conquers» (bosib oluvchi shaxs) va uning fe'l shakli «conquer»ning «to take control of a country or city and its people by force» (kuch ishlatib biror mamlakat yoki uning aholisini nazoratga olmoq) ma'nolari mavjud. «*Conqueror*» so'zini ishlatilishi gapning ta'sirchanligini oshiradi. Bu ta'rif Boburning Shayboniyxon shaxsiyatiga bergan dastlabki bahosi ekanligini inobatga olsak, matndagi har bir so'z muallifning portret yaratishdagi mahoratini namoyon etadi. Ayni paytda Bobur va Shayboniyxon shaxsiyatining matn osti muqoyasasini anglash imkonini beradi. Matnda kelgan «qandag'i yot yog'iy» iborasida Shayboniyxonga nisbatan salbiy ottenka (ma'no nozikligi) aniq seziladi. Tarixan bu shaxs Movarounnahr o'lkasi uchun yot bo'lmasa-da, mulkning o'tmishdagi egasi bo'lgan Bobur ta'nasi o'rinni tuyuladi. Ammo shu o'rinda ishlatilgan «qandag'i yot yog'iy» birikmasi Shayboniyxon tarixiy silsilasi borasidagi haqiqatga to'la mos kelmaydi. Chunki Abulxayrxon, O'zbekxonlar uchun ham bu vatan ota yurt hisoblanadi. Xolis qaraganda, bu voqea taxtning bir o'zbek urug'i qo'lidan boshqasiga o'tishi haqida. Ammo Bobur mag'lubiyat alamini tortgan bir alamzada taxt davogari sifatida Shayboniyxonga nisbatan «*qaerdagi bir dushman*» birikmasini qo'llagan va bir oz subyektivlikka yo'l qo'ygan. Bu birikmada raqibni kamsitishga urinish bor. «*A foreign robber, one knew not whence*» tarzida o'g'irilgan tarjima matnida mana shunday nozik nuqtalardan xabarsizlik yaqqol seziladi. Qolaversa, tarjimada «*one knew not whence*» birikmasi qo'shib tarjima qilinadi. Bunda tarjimon asosiy tabdil usullaridan biri qo'shish usulidan foydalanadi. Asliyat matnining mazmuniga putur yetkazmasa-da, tarjima matnida ijodkorlikka yo'l qo'ygani bilinadi.

Quyidagi: «qandag'i yot yog'iy o'zbek kelib mutasarraf bo'lub edi. Ilikdin ketgan mulkni...» jumlasini, tarjimada: «*A foreign robber, one knew not whence he came, had seized the kingdom, which dropped from our hands*» (*Kelib chiqishi notayin bo'lgan yot bosqinchi bizning qo'ldan ketgan podshohlikni egallab oldi*) (MT) deb o'g'iriladi. Asliyat matnida ushbu jumla sodda va aniq berilgan, tarjimon unga biroz qo'shimcha qilgan, ammo sodda gapni qo'shma gapga aylantirib, o'quvchining matnni anglashini biroz qiyinlashtirgan. Oqibatda matnning pragmatik xususiyatlarini saqlashga bo'lgan urinishlari bekor ketadi. Muallifning sodda uslubi murakkab uslubga aylanib, pragmatik nomuvofiqlik maydonga keladi.

A. Beverij tarjimasida: «*Samarkand had been the capital of our dynasty. An alien, and of what stamp! An Auzbeg foe, had taken possession of it! It had slipped from our hands; God gave it again! plundered and ravaged, our own returned to us*» [1. 134] (*Samarqand bizning sulolamizning poytaxti edi. Begona va qanday yakson qiluvchi! O'zbek (Shayboniyxon) bosqinchi uni egallab oldi! U bizning qo'limizdan ketdi; Olloh uni yana qaytarib berdi! Bosqinchilik va talon-tarojda qolgan mamlakatimizni qaytarib berdi*) (MT) deb tarjima qiladi. Muallif qiyosiy tasvirlarni berishda «qandag'i yot yog'iy» birikmasini keltiradi, tarjimada esa bu birikma alohida ajratilib: «*An alien, and of what stamp!*» (*Begona va qanday yakson qiluvchi!*) tarzida tarjima qilinadi. A.S. Beverij ham tarjimoni aynan muallif ifodalagandek tarjimada qayta yarata olmagan. Tarjimon gaplarda shunday birikmalarni har birini alohida ajratib oladi va darak gaplarni undov gapga aylantiradi. Asliyatda: «*o'zbek kelib mutasarraf bo'lub edi*» jumlasini, tarjimada: «*An Auzbeg foe, had taken possession of it!*» tarzida alohida gap shaklida keltiriladi. Bu jumlada qo'shilgan «*foe*» (*dushman*) so'zi asliyat matnida keltirilgan «*o'zbek*» so'zini biroz kuchaytirib ko'rsatishga modulyatsiya qilishga olib keladi. «*An alien, and of what stamp!*» (*Begona va qanday yakson qiluvchi!*) bu keltirilgan parchada ham xuddi shunday holatni kuzatishimiz mumkin. «*Tengri berdi*» darak gapi esa, tarjimada: «*God gave it again!*» deb undov gapga aylantirib beriladi. Asliyatda berilgan darak gaplar his-hayajonli gaplarga o'zgartirilgan. Ehtimol, muallif gaplarining ta'sirchanligini oshirish maqsadida shu yo'lni tutgan bo'lsa kerak. Muallif keltirgan sodda gaplarni yanada soddalashtirib, tarjimada aks ettirgan. A. Beverij tarjimasida asliyat matnining pragmatik xususiyatlari grammatik jihatidan bir oz nomuvofiq bo'lishi bilan birga, asl mazmundan ham ancha uzilib qolgan.

ADABIYOTSHUNOSLIK

V.Tekston tarjimasida: «...*Samarkand had been in our family. Then came the Uzbeks, the foreign foe from God knows where, and took over. Now the property that slipped from our hands had been restored by God. The plundered and pillaged kingdom once again entered our domain*» [7.121] (*Samarqand bizning sulolaga mansub edi. Keyin xudo biladi qaerdandir yot dushman o'zbek (Shayboniyxon) keldi va yurtni bosib oldi. Qo'ldan ketgan mulkni Tangri qayta tiklab berdi. Bosqinchilik va talon-tarojda qolgan mamlakat yana bizning tasarrufimizga kirdi* (MT) deb tarjimada beradi. Muallif qo'llagan «yot yog'iy» birikmasi «*the foreign foe*» (begona bosqinchi (dushman) tarzida A.S.Beverij tarjimasiga nisbatan asliyatga yaqin qayta yaratilgan. Ushbu «qandag'i yot yog'iy o'zbek» birikmasi, «*the Uzbeks, the foreign foe from God knows where*» (*xudo biladi qaerdandir yot dushman o'zbek*) deb tarjimada beriladi. Bu tarjimada «xudo biladi» birikmasi tarjimon tomonidan qo'shilgan bo'lsa-da, og'zaki nutqda ko'p ishlatadigan so'zlardan biridir, ehtimol tarjimon matnning yanada tushunarli bo'lishi va jumlani to'liqroq ifodalash uchun bu so'zni kiritgan bo'lishi mumkin. Kengaytirib tarjima qilingan gap ma'no jihatidan – Boburning ixcham uslubiga mos keladi. Tarjimon muallifning qiyosiy tasvirlarini, so'z va iboralarni mohirlik bilan tarjimada qayta tiklagan. Qiyosiy tasvirlar tarjimasida generalizatsiya usulidan foydalangan. Shu bilan birgalikda, «qandag'i yot yog'iy» birikmasi ost ma'nosida yotgan kinoya va kamsitishni bera olmagan. Bu tarjimonning xalq jonli tili va ifoda uslubidan bexabarligi shunday kamchilikning kelib chiqishiga sabab bo'lgan. Holbuki, matnshunos, tarjimashunos olim Sh.Sirojiddinovning ta'kidlashicha: «Tarjimada pragmatik salohiyatni maromiga yetkazish yo'lida tarjimon konkretizatsiya (aniqlashtirish) kabi boshqa usullardan ham foydalanishi mumkin. Lozim bo'lgan taqdirda turli izohlar berish va ikki madaniyat o'rtasida kommunikatsion yaqinlikka olib keladigan har qanday imkoniyatdan ijodiy foydalanmog'i darkordir. Tarjima retseptoriga kommunikativ ta'sir o'tkazish ayrim holatlarda tarjimon uchun juda muhim bo'lib, maqsadli ravishda asliyat talab qilgan janriy o'ziga xosliklar, muallif uslubini, badiiy tasvir ifodalarini aynan saqlashga harakat qiladi. Bu, ko'proq mumtoz adabiyot namunalarini xorijiy tillarga tarjima qilishda namoyon bo'ladi» [8.31].

Ko'rinadiki, har uchala tarjimada Bobur qo'llagan tasviriy vositalar turlicha talqin etilgan. Tarjimonlar ba'zan so'zlarni qo'shib tarjima qilsa, ba'zan esa so'zlarni tushirib qoldiradi. A.Beverij tarjimada ikkala tarjimondan farqli yo'lni tanlagan, matndagi darak gaplar undov gapga aylantirib yuborilgan. Leyden-Erskin tarjimasida esa, sodda gaplar murakkab gaplarga aylantirib, kitobxonga matni tushunishni qiyinlashtirgan. V.Tekston tarjimasida ijodiy usul ko'zga tashlanadi. Shunday bo'lishiga qaramay, har uchala tarjimon ham asliyat mazmunini imkoni darajasida ochib berishga erishgan. Darhaqiqat, tarjimada nazariya va amaliyot mushtarakligi o'ta muhim. Xorijlik tarjimashunos Edgar Andres Morosning yozishicha: «Tarjimonlar amaliyotda nazariyani hech qanday foydasi yo'qligini da'vo qiladilar va nazariyachilar tarjimonning tajribasi nazariyadan xoli bo'lishi mumkinligini ta'kidlaydi. Bundan tashqari, olimlar ma'lum tarixiy davrlarda tarjima ishlari olib borilganda nazariya yetishmasligini aytib o'tadilar. Biroq, Postmodern fikriga asoslangan holda, bu disseksiya noaniqdir, chunki nazariya va amaliyot bahs-munozarasi faqatgina Strukturistik fikrlarga asoslangan ikki qarama-qarshilikdir» [9.14].

XULOSA

Tarjima jarayonida, asar voqealariga xos tasvir, qahramonlar xarakterini imkon darajasida to'la anglashga intilish tarjimon professionalizmiga tegishli muammodir. Chunki muallif konsepsiyasi va fikrlash ko'lami, uslub individualligini anglamasdan qilingan tarjima kechirib bo'lmas noaniqlar kelib chiqishiga sabab bo'lishi mumkin. Asl matni tarjimada qayta tiklashda tarjimonning pragmatik va leksik muammolariga qanday yechim topgani har jihatdan muhim. Tarjimonlarning uslublaridan shu jihatlar seziladiki, ular matn tarjimasida turli yo'llardan boradilar, bir tarjimon uslubini boshqalari takrorlamaydilar. Birida tushib qolgan so'z yoki ibora ikkinchisi tomonidan to'ldiriladi yoki aksincha. Asliyat mazmunini tarjima matnida ochib berishda tarjimon mahorati, so'z boyligi muhim ahamiyatga egadir. Tarjimaning adekvatlik usuli aniqlikni taqozo etsa, so'zma-so'z tarjimada ma'no buzilishi holatlariga yo'l qo'yilishi ehtimoli bor. Tarjimashunos olim va mohir tarjimon I.G'afurov quyidagi so'zlari ayni jihatdan muhimdir: «So'zlarning ma'nolarini aniqlash – semantikada tarjimonning zakovati muhim ahamiyatga ega. Asliyatdagi so'zlarning ma'no ifodalarini, mazmunini tarjimada kanday chiqarish ustida ter to'kib mehnat qilarkan, tarjimon ikkinchi – tarjima tilining semantik, stilistik, pragmatik jihatlardan beqiyos darajada boyishiga, ifoda salohiyatining kuchayishiga xizmat qiladi. Uning ijodiy mehnati natijasida ikkinchi til – tarjima tili ilgari o'zida bo'lmagan so'zlar,

tushunchalar, atamalar, yangi yasalgan birikmalar, hikmatli soʻzlar, aforizmlar, yangi turgʻun birikmalarni oʻz bagʻriga oladi» [10.62]. Darhaqiqat, tarjimonning bilim, tajriba va ijodiy yondashuvni uygʻunlashtirishi tarjimaning har tomonlama shirali va kitobxonga tushunarli boʻlishini taʼminlaydi.

ADABIYOTLAR

1. Beveridge A.S., The Bābur-nāma in English (Memoirs of Babur), Translated from the Original Turki Text of Zahiruʻddin Muhammad Babur Padshah Ghazi by Annette, Susannah Beveridge. 2 Vols. – London, 1922; Repr, in one Volume, – London, 1969; – New Delhi, 1970; – Lahore, 1975. – P.134
2. Zahiriddin Muhammad Bobur. «Boburnoma». – Toshkent: Sharq NMAK, 2002. – B. 80
3. Haqqul I. Kim nimaga tayanadi? (Adabiy suhbatlar) – Toshkent, 2006. – B.44.
4. Qodirov Pirmqul. Til va el (Badialar). – Toshkent: Maʼnaviyat, 2010. – B. 210-211.
5. Paul Levern Hanson. Sovereignty and Service Relationship in the Timurid Corporate Dynasty under Babur: the Continuing Legacy of the Chingis Khanid Political System. – Chicago / Illinois, 1985.
6. Leyden J., W.Erskine. Memoirs of Zehired-din Muhammed Babur, Emperor of Hindustan.– Edinburg, 1826. – P.422
7. The Baburnama. Memoirs of Babur, Prince and Emperor, Translated, Edited, and, Annotated by Wheeler M., Thackston. – New York & Oxford, 1996. – P.121
8. Sirojiddinov Sh., Odilova G. Badiiy tarjima asoslari. – Toshkent: Mumtoz soʻz, 2011. – B. 31.
9. Edgar Andres Moros. Challenging Traditional Notions of Theory and Practice in Translator Training and in the History of Translation Studies: Two Exemplary Cases. Dissertation for the Degree of Doctor of Philosophy in Translation Studies in the Graduate School of Binghamton University State University of New York, 2009, – P.14.
10. Gʻafurov I. Tarjimonlik mutaxassisligiga kirish. – Toshkent, 2008. – B.62.